O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI SHO‘RCHI TUMANI HOKIMINING

QARORI

Sho‘rchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi 72-uy. 191500 tel.: (+99876) 457-41-00, shurchi_t@exat.uz

2021 - yil 20 - dekabr 110-8-120-Q/21 Sho‘rchi tuman hokimligi

Sho‘rchi tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2011 yil 4 apreldagi 101-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan tuman hududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimligi:

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi hamda

qabristonlarning ma’muriyati:

xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, ob’ektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qaror “Jarayon” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Norqulov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **Xudoyberganov B. X.**

Шўрчи туман ҳокимининг
2021 йил 20 декабрдаги
110-8-120-Q/21-сон қарорига
1-илова

Sho`rchi tumani hokimining 2021 yil 20-dekabrdagi _____-sonli qaroriga ilova

Sho‘rchi tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori

so‘m

T\r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Tuman
1.	Go‘r qazish	1 o‘ringa	Bepul
2.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o‘ringa	Bepul
3.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	Bepul
4.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin/kunga	Bepul